

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TA'LIMNING RIVOJLANISHI

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU “AKTSI” kafedirasi dotsenti

N.A.Xasanova

“AKTSIM” fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi bakalavr bosqichi 1-bosqish talabasi

Zafarov Behruzjon E'zosjon o'g'li

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyotda ta'limning ro'lini o'rganish va raqamli iqtisodiyotda rivojlanishning asosiy omillari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar, zamonaviy bilim va ko'nikmalar, innovatsion yondashuvlar hamda inson kapitalining sifati ta'lim rivojlanishining muhim omillari sifatida belgilandi. Olingan xulosalar raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limni rivojlantirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston universitetlari va maktablarida ta'limni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanib kelinyapti.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv.

KIRISH

Hozirgi raqamli texnologiyalar bilan barqaror rivojlanib kelayotgan XXI asrda ta'lim tizimini rivojlantirish, talaba yoshlarga manfaatli bilim berish va hozirgi yuksak texnologiyalar zamoniga yoshlarni raqobatdosh etib tayyorlash uchun ta'lim tizimlarida raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlangan. Jumladan, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020-yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e'lon qilindi. [1]

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Zamonaviy ta'lim - bu bugungi kunda rivojlanishdagi barqaror yetakchi omil hisoblanadi. Doimiy innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot davrida raqamli ta'lim odamlar hayotining barcha jabhalarini o'qish va ishlashdan bo'sh vaqtini o'tkazishgacha qamrab oladigan keng tarqalgan tushuncha hisoblanib kelmoqda.

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar bilim olish imkoniyatlariga kengroq yo'l ochmoqda. Internet, sun'iy intellektlar va raqamli ta'lim platformalari yordamida turli xil zamonaviy bilimlarni olish, maqolalar, tadqiqotlar va virtual laboratoriyalarga kirish imkoniyati yaratilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini

chuqurlashtirish nafaqat mavjud resurslardan samarali foydalanish, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Integratsiya jarayonida ilmiy tadqiqotlar real ishlab chiqarish muammolariga yo‘naltirilishi, ta‘lim dasturlari esa texnologik taraqqiyot sur‘atlariga mos ravishda muntazam yangilanib borilishi zarur. Bu holat innovatsion g‘oyalarning bozorga chiqish muddatini qisqartirish va ilmiy ishlanmalar tijoratlashuvini tezlashtirishga xizmat qiladi. [2]

Raqamli iqtisodiyotda ta‘limni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish, universitetlarda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi ta‘lim darajasini yaqqol ko‘rish uchun LMS/HEMIS kabi saytlarni keng qo‘llash va uning imkoniyatlaridan to‘laonli foydalanish yaqqol misol bo‘la oladi. Bu saytlar orqali ta‘lim sifatini oshirish va talaba yoshlarni o‘zlashtirish darajasini, vazifalardan olinga baholarni ko‘rish mumkin va bundan tashqari bu raqamlashtirilgan saytlarni ishlab chiqish va universitetlarda qo‘llash orqali iqtisodiyotni rivojlanishiga ham yetarli darajada hissa qo‘shish va raqamlashtirish orqali yagona ishonchli ta‘lim tizimini tuzishga erishiladi.

COVID-19 koronavirus pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab ta‘lim tizimlariga salbiy ta‘sir qilib, maktab va universitetlarning ommaviy yopilishiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinga qarorga muvofiq 2020-yildan boshlab maktablar va universitetlar talabalari uyda qolgan holda mustaqil o‘zlashtirishlari kerak edi va bu mustaqil ta‘limga yordam berish uchun telekonallardan “online dars”lar efirga uzatila boshladi. Bu O‘zbekistonda ta‘lim tizimini raqamlashtirishning birinchi tashabbuslaridan biri edi.

Pandemiya tugaganidan keyin ta‘lim muassasalari an‘anaviy ta‘lim formatiga to‘liq qaytishni istamadiva maktab, letseylarda raqamlashtirish texnologiyasi amalga oshirildi “kundalik.com” shular jumlasidan. Universitetlar uchun esa masofaviy ta‘limga o‘tish strategiyasini ishlab chiqildi. Masofaviy ta‘limga o‘tish sharoitida o‘qituvchilar va ta‘lim dasturlari menejerlarining xatti-harakatlari muhim muammodir. Masalan, Bay View Analytics tadqiqotiga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlarda 1,5 million o‘qituvchi bor va ularning 70 foizi virtual maydonda hech qachon dars bermagan. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida ta‘limni raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratildi [1]. Bu jarayonda ta‘lim muassasalarining infratuzilmasini yangilash, raqamli platformalarni keng joriy etish va pedagog kadrlarni raqamli salohiyatga ega kadrlar sifatida tayyorlash muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. [3]

Bugungi kunda ta‘lim tizimi tobora raqamli shaklga o‘tayotgani sababli yoshlar sun‘iy intellektdan ko‘proq foydalanib bormoqda. Bu holat bir tomondan qulaylik yaratib, bilim olish jarayonini tez va oson qilsa, boshqa tomondan ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Sun‘iy intellekt yordamida qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin, bu esa ta‘limdagi ko‘plab vazifalarni yengillashtiradi. Shu bilan birga, yoshlarning mustaqil fikrlashi va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishlarini kamayib borayotgani ham sezilmoqda. Tayyor ma‘lumotlarga haddan tashqari tayanish kelajakda

20-Yanvar, 2026-yil

jamiyat, iqtisodiyot va boshqa sohalar uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlar yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Chunki haqiqiy bilim faqat izlanish va tajriba orqali shakllanadi.

Hozirgi davrda sun‘iy intellekt ta‘lim sohasida katta o‘zgarishlar yasamoqda. U an‘anaviy ta‘lim usullarini yangilab, har bir o‘quvchining individual ehtiyojiga mos yondashuvni taklif qilmoqda. Bundan tashqari, ma‘muriy ishlarni soddalashtirib, o‘qituvchilar va talabalarga vaqtni tejash imkonini bermoqda.

Intellectual repetitorlar va virtual reallik kabi zamonaviy vositalar esa bilim berish va uni o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilmoqda.

Zamonaviy ta‘limning rivojlanishiga bog‘liq omillar:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamlashtirish: Internet, mobil qurilmalar, onlayn platformalar va sun‘iy intellektlar ta‘limni yanada sifatli va moslashuvchan qiladi.

2. Globalizatsiya: milliy chegaralardan tashqari bilim almashish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirdi.

3. Iqtisodiy va professional talabalar: mehnat bozorining o‘zgarishi (tezkor o‘zgaruvchan kasblar) doimiy malaka oshirish va yangi kompetensiyalari shakllantirishni taqozo etadi.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyati va ehtiyojlariga moslashtirilgan ta‘lim (individual ta‘lim dasturlari).

XULOSA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta‘lim tizimining rivojlanishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga keng joriy etish bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Internet, sun‘iy intellekt, raqamli ta‘lim platformalari hamda LMS/HEMIS kabi tizimlar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlab, ta‘lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta‘minlamoqda. Shu bilan birga, fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish innovatsion g‘oyalarning tezkor amaliyotga joriy etilishiga, ilmiy ishlanmalar tijoratlashuviga hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta‘limning joriy etilishi ta‘lim tizimini raqamlashtirish zaruratini yanada yaqqol namoyon etdi va bu jarayon O‘zbekistonda ta‘limni modernizatsiya qilish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1 Sh.Mirziyoyev “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida -6079-son 05.10.2020 yil O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni.

2. Saidqosimova U.I., Xasanova N.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida fan va ta‘lim tizimining ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashuvi: innovatsion rivojlanish va samaradorlik omillari.

20-Yanvar, 2026-yil

3. Sh.Mirziyoyev “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida - 6079-son 05.10.2020 yil O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni.

4. N.N. Pluzhnikova, "Digital education and social competences of a modern engineer", AIP Conference Proceedings 2389, 100004. 2021. DOI:

5. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “oliy va amaliy matematika” kafedrasida assistenti XOLDAROVA FOTIMAXON MAXAMMADJON QIZI maqolasi.

6. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasida assistenti Begaliyeva Madina Abdusamatovna maqolasi.

